


“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori,
professor  X.B. Yunusov
2025-yil “22” –avgust



Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni kechki ta’lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra o‘qishga qabul qilishning BAHOLASH MEZONI

1. Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati
va ahamiyati;

belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashdan asosiy maqsad;

belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos mehnat faoliyati davomida
erishgan yutuq va natijalari;

belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy
ko‘nikmalarning mavjudligi.

*Har bir savolga 25 balldan ajratilib, jami to‘plash mumkin bo‘lgan eng
yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.*

2. Savollar oliy ta’lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

3. Muayyan ta’lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha suhbat jarayoni yakunlangach, Suhbat komissiyasi a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ballar hisoblab chiqiladi va Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan qaydnomaga kiritib boriladi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan qaydnomaga asosan Suhbat
komissiyasining ishtirok etgan a‘zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi
55 balldan yuqori bo‘lganda abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi.

Muayyan ta’lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat natijalariga
ko‘ra suhbatdan o‘tganlar ro‘yxati shu kunning o‘zida abituriyentlarga o‘qib
eshittiriladi.

4. Oliy ta’lim muassasasida suhbatlar o‘tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellatsiya shikoyatlarini ko‘rib chiqish uchun apellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24
soat ichida qabul qilinadi va apellatsiya komissiyasi tomonidan murojaat


qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Apellatsiya komissiyasi tarkibiga qabul komissiyasi faoliyatida ishtirok etmagan oliy ta'lim muassasasi xodimlari orasidan komissiya raisi va to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Abituriyent apellatsiyani ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

Apellatsiya komissiyasi abituriyentning apellatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi hamda uning qabul komissiyasi va abituriyentga yetkazilishini ta'minlaydi.

**Besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni
kechki ta'lim shakliga suhbat asosida o'qishga
qabul qilish bo'yicha mas'ul**



G'.M.Quldoshev